



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10-ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

NAVOYINING YIGITLIK LIRIKASIGA MANSUB MUSTAZODI

Nusratullo Jumaxo'ja Ataullo o'g'li,

Filologiya fanlari doktori, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU professori.

E-mail: ataullo98@mail.ru

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/YXKT5315

Annotatsiya. Ushbu maqola Alisher Navoiy ijod etgan lirik janrlardan biri – mustazodni o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada birinchi marta Navoyining yoshlik lirikasiga mansub mustazodlar maxsus tadqiq etilmoqda. Tahlil obyekti sifatida Navoyining "Ilk devon"i va "Oqqo'yunli muxlislar devoni"da aks etgan mustazodlari tanlab olingan. Mustazodlarning ushbu devonlardagi ilk variantlari shoirning mukammal devonlaridagi variantlar bilan qiyosiy tahlil etilgan. Tahlil jarayonida Navoyining o'z asarlari ustida ijodiy ishlash jarayonlari ochib berilgan. Mustazodlarning ilk va mukammal variantlari o'rtasidagi ijodiy takomil (evolyutsiya) bosqichlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Mustazod, ijodiy takomil, ijodiy evolyutsiya, tadrijiy takomil, ilk variant, mukammal variant, ijodiy ishlov, poetika, badiiy mahorat, matn tahriri, muallif tahriri, xattotlar xatolari, noshirlar nuqsonlari, badiiy sayqaldorlik.

A MASTER OF NAVOI'S YOUTH LYRICS

Abstract. This article explores mustazod, a lyrical genre developed by Alisher Navoi, with a particular focus on its manifestation in the poet's early works. For the first time, the study specifically examines mustazods found in Navoi's youth poetry, analyzing those preserved in *Ilk Devon* and the *Divan of the Aq Qoyunlu Admirers*. These early versions are systematically compared with their counterparts in Navoi's complete devons, enabling a deeper understanding of the poet's creative process. Through this comparative analysis, the study uncovers the stages of textual refinement and artistic evolution in Navoi's poetry, highlighting the transformation of mustazods from their initial drafts to their final, fully developed forms.

Keywords: Mustazod, creative improvement, creative evolution, gradual improvement, first version, perfect version, creative processing, poetics, artistic skill, text editing, author's editing, calligraphers' mistakes, publishers' defects, artistic polish.

Alisher Navoyining "Oqqo'yunli muxlislar devoni"ga kirgan [Навойи 2021, 62-6 – 63-a] mustazodi shoirning yigitlik davri lirikasiga mansubdir. Shoirning "Ne vo'smavu ne kesmadur ul zulfi sumansoy" boshlanmali ilk mustazodida [Навойи 1968, 137-a–137-6] dunyoviy muhabbat mavzusi yoritilgan bo'lsa, o'smirlik yoshidan yigitlik davriga o'tgan Navoyida ilohiy muhabbatni kuylash salohiyati yuksalgan. Uning ikkinchi mustazodi to'lig'icha tasavvufiy talqin bilan yo'g'rilgan. Adabiyotshunos va tarjimashunos olim Z.Isomiddinov ushbu mustazodning zamonaviy nashrlariga asoslanib, uni Navoyining birinchi mustazodi deb hisoblaydi [Исомиддинов 2022, 150]. Bunda Navoyining norasmiy devonlari – "Ilk devon" va "Oqqo'yunli muxlislar devoni"dagi dastlabki mustazodlar inobatga olinmagan. Ammo Navoyining har qanday asari ilmiy o'rganilar ekan, asarlarining qo'lyozma shakldagi nusxalari, ijodiy takomil tarixi nazardan soqit qilinmasligi lozim.

Shoirning ushbu mustazodi Hamid Sulaymonning "Xazoyin ul-maoniy" lirik kulliyoti birinchi jildi [Навойи 1959, 671], Mukammal asarlar to'plami 1-tomi, 3-tomi

[Навойи 1988, 499] va To'la asarlar to'plamining 1-jildi [Навойи 2011, 673] nashrlaridan o'rin olgan.

"Ey husnunga zarroti jahon ichra tajalli" deb boshlanadigan ushbu mustazod navoyishunoslikda *"hamd mazmunidagi mustazod"* sifatida e'tirof etilgan [Сирождидинов, Юсупова, Давлатов, 2020, 51]. Darhaqiqat, mustazod boshdan-oyoq hamd-u sano mazmunida bitilgan. Faqat asarning olti bayti Yaratuvchiga hamd-u sano bo'lsa, yettinchi bayti sulton Husayn Boyqaroga hamd ma'nosida yozilgan.

Mustazodning matlasi shohbaytdir. Chunki u g'oya va mazmun jihatidan g'oyatda teran. Unda Alisher Navoyining tasavvufona nuqtayi nazari (konsepsiyasi) yaxlit va nihoyatda yorqin ifodalangan:

*Ey husnunga zarroti jahon ichra tajalli,
mazhar sanga ashyo,
Sen lutf bila kavnu makon ichra muvalli,
olam sanga mavlo.*

Baytda bugungi tushunchamizga begona bir qancha so'z-tushunchalar borki, ular, albatta, izohlashni taqozo etadi. Ularga to'liq aniqlik kiritmay turib, bayt mazmunini to'liq ochish imkonsiz. Ular quyidagilar: 1. *Zarrot* – lug'aviy ma'nosi zarralar, mayda bo'laklar, atomlar. Baytda *zarroti jahon* iborasi tarkibida kelgan. Demak, u jahonda mavjud jamiki zarralarni anglatadi. 2. *Tajalli* – lug'aviy ma'nosi ko'rinish, jilvalanish. So'z arab yozuvida *"yo"(i)* harfi bilan tugaydi. Ayrim olimlar ushbu *"yo"*ni *"yo-yi liyoqat"* deb hisoblaganlar. Arab-fors yozuvi qoidasiga ko'ra, uni o'rni va ma'nosiga qarab, *"i"* ham, *"o"* ham deb o'qish mumkin. Shundan kelib chiqib, ular *"tajalli"* so'zini *"tajallo"* deb ham nashr etganlar. Masalan, Navoyi Mukammal asarlar to'plami va To'la asarlar to'plamida shunday xatoga yo'l qo'yilgan. Lekin so'zning to'g'ri shakli *"tajalli"*dir. Tajalli – shunchaki ko'rinish va jilvalanishni emas, balki Olloh jamolining namoyon bo'lishi, jilvalanishini anglatadi. 3. *Mazhar* so'zi hozirgi tilimizdagi *izhor*, *zohir* so'zlari bilan o'zakdosh va ma'nodosh. U Navoyi tilida, ya'ni tasavvufiy istilohda paydo bo'lish, ko'rinish, aks etish, namoyon bo'lishni bildiradi. 4. *Ashyo* – narsa, buyum ma'nosidagi so'z. Baytda u *har qanday narsa, borliqdagi jamiki mavjudot* ma'nosida qo'llangan. 5. *Lutf* – iltifot, rahm, marhamat, mehribonlik ma'nolarini bildiradi. 6. *Kavn-u makon* – dunyo, olam, borliq, koinot. 7. *Muvalli* so'zining mag'zini chaqishga kelganda, vaziyat birmuncha murakkabroq. Porso Shamsiyev va Sobirjon Ibrohimov tomonidan tuzilgan bir tomlik "Navoyi asarlari lug'ati" [Навойи асарлари луғати 2023. 653], 4 tomlik "Navoyi asarlari tilining izohli lug'ati" [Алишер Навойи асарлари тилининг изоҳли луғати, 1983-85], 2 tomlik "Farhangi zaboni tojiki" (Tojik tilining izohli lug'ati) [Фарҳанги забони тоҷики 1969], 3 tomlik "G'iyos ul-lug'ot"ning [Ғиёс ул-луғот 1987-89] hech birida aynan *"muvalli"* shaklidagi so'z yo'q. Lug'atlarda shu so'zga yaqin *"vali"*, *"mavli"*, *"mavlo"*, *"mavoli"* so'zlari bor. Ular o'zakdoshligi, ma'nodoshligi jihatidan biri biridan kelib chiqadi. Lekin mustazodga aynan *"muvalli"* shakli ma'no va ohang jihatidan juda mos tushgan. Umidvormizki, zora keyingi lug'atlarda aynan shu misraga muvofiq ravishda, *"muvalli"* so'ziga ham alohida izoh berilsa. Zotan, yangi "Navoyi tili lug'ati"ning dastlabki 2 jildidan [Навойи луғати 2022, 519] keyingi jildlari hali bosmadan chiqmadi. Nazarimizda, ushbu besh shakldagi – *vali*, *mavli*, *mavlo*, *mavoli*, *muvalli* so'zlarining o'zagi validir. *Vali* so'zining birinchi ma'nosi *ega*, *sohib*dir. *Mavli* so'zining ma'nosi ham *ega* va *sohib*dir. *Mavlo* so'zining dastlabki ma'nosi ham *sohib*, *xoja*, *homi*y, *ustoz*dir. *Mavoli* so'zining ham *egalar*, *egalik qiluvchilar* ma'nolari bor.

Ushbu ma'nolarning barchasi ham *muvalli* so'zining baytdagi ma'nosini izohlashga xizmat qila oladi. Ya'ni, ularning hammasi olam, borliq, mavjudotning egasi, sohibi, yaratuvchisi, xojasi, yagona hukmdori ma'nolarida birlashib, Ollohning sifati va zotini ifodalaydi. 8. *Mavlo* so'zining ikkilamchi ma'nolari esa *qul*, *banda* demakdir.

Ana endi shu so'zlar va ularning ma'nolariga asoslanib, baytning umumiy mazmunini bayon etish mumkin. Shoir Yaratuvchi zotga murojaat qilib aytyaptiki, "*Ey jahondagi jamiki mavjudot – ulkan mo'jizaviy jismlar, manbalardan tortib, eng kichik, nazarnogir, ko'z ilg'amas zarralar, atomlargacha husningda jilvalangan Zoti bobarakot, har qanday narsa-hodisa, ya'ni ashho Sening mazharingdir, izhoringdir, namoyoningdir, moddiy surating va shaklingdir!*" Odatda, lirik asarlarda undalma bir yo ikki so'z bilan ifodalanardi. Bu baytda esa grammatik undalma ulkan tus olgan. Naqd olti so'zdan iborat: "*Ey husnunga zarroti jahon ichra tajalli*" nidosi yaxlitligicha undalma vazifasini bajarishga safarbar etilgan. Ammo bu undalma oddiygina so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni emas, balki Ollohning tilsimli va sehrli zoti fazilatu zalvorini yaxlitligicha, butun salmog'i bilan mujassamlashtirgan. "*Mazhar sanga ashho*" – qo'shimcha misrasi esa har qanday modda, jism, hodisa, shaklu shamoyil, jonli va jonsiz tabiat, surat va siyrat – jami-jamisi Olloh jamolining, mavjudligining jilvasi uchun mazhar, ya'ni maydon ekanligi yombi mazmun sifatida bayon etilgan. Ikkinchi misraga esa, Ollohga nisbatan: "*Sen najotkor lutf-u karaming, mehr-u muruvvating, rahm-shafqating tufayli butun borliqni yaratding, unga jon, harakat, rivojlanish ato etding va Sen mavjud jamiki yaratilqlarning yagona egasi, xo'jayini, hukmdorisan – olam-u odam bo'lsa, sening itoatingdagi qul, bandadir*" mazmuni singdirilgan.

Shunday salobatli ijodkorligi bilan Olloh, ayni paytda, juda nozik, ko'zga ko'rinmas, qo'lga ilinmas, tasavvurga sig'mas mo'jizadir. Navoyi bir g'azalida antiqa ifodalaganidek, "*Sening paydoliq'ing – pinhon, vale pinhonliq'ing – paydo!*" Keyingi baytda Ilohiy zotning shunday sir-sinoati favqulotda go'zal poetik ifodalangan:

*Har yon kezaram telbasifat toki yashundung
ko'zdin pari yanglig',
Majnundin o'zin toki nihon qilmadi Layli,
ul bo'lmadi shaydo.*

Oshiq lirik qahramon Haqni angladi, uning ishqiga muftalo bo'ldi, uning visolini istab, diydoriga tashna bo'ldi. U butun borliq timsolida mavjud, butun borliq Uning timsolida jilvalanadi. Ammo oshiq Uni real borliq sifatida ko'rishni istaydi. Bu esa – imkonsiz. Chunki U go'yoki paridek ko'zdan pinhon. Oshiq telbalarcha har yon yugurib Ma'shuqini axtaradi. Uni izlab topmagan sari, ishqiy jununi tobora avj olib, majnunvor qiyofaga kiradi. Shoir bunday ruhiy holatni badiiy asoslash maqsadida talmeh san'ati orqali Layli va Majnun afsonasiga havola qiladi. Zotan, qissalarda, dostonlarda kuylanganidek, Layli ko'zdan pinhon bo'lgani sari Majnunni ishq kuchayib boradi. Hijron uzaygan sari, diydorga tashnalik ham orta boradi. Bu – ishqning azaliy va abadiy qonuniyati.

Junun tasvirida oshiq yalangto'sh holatda gavdalantiriladi:

*Uryon badanim zaxmlari ichra emas qon,
yuz pora ko'nguldur,
Bu ravzanalardin qiladur har biri ya'ni
husnungg'a tamosh.*

"*Uryon badan*" iborasi yalang'och tanani bildiradi. "*Zaxmlar*" so'zi esa badandagi yaralar, jarohatlarni anglatadi. "*Ravzana*" – tuynuk, teshik, darcha ma'nolaridagi

soʻzdir. Bu baytda, asosan, tuynuk, darcha maʼnolarida qoʻllangan. Mazkur baytda tasvirlanishicha, oshiqning qip yalangʻoch badanlarida son-sanoqsiz jarohatlar bor. Ular qontalash. Yoʻq-yoʻq, ular oshiq vujudidagi qon sizib turgan yaralar emas, balki koʻngilning yuz parchaga boʻlingan boʻlaklaridir. Jarohat boʻlib koʻrinayotganlar yaralar emas, goʻyoki oshiq terisidagi tuynuklar, darchalardir. Bu tuynuklar ortidagi koʻngil boʻlaklarining har biri yara koʻzlari orqali maʼshuq husnini tamoshos qilayotgandek goʻyo. Mana, oshiqning jismoniy ahvolini qanday goʻzal tasvirlash mumkin ekan! Bunda, birinchidan, oshiqning yor hajridagi xasta vujudi, ikkinchidan, ishq dardidan ming boʻlakka boʻlingan qontalash yurak tasviri mujassam. Shunday ogʻir xasta holatda ham oshiqning ming bir boʻlak yuragi vujudi darchalaridan maʼshuqning benazir husn-u jamoliga mahliyo boqadi. Demak, mustazod baytlarida oshiqning faqat ruhiy holati emas, balki jismoniy ahvoli ham tasvirlanishi qonuniy hol ekan.

Shu oʻrinda mustazod noshirlariga bir eʼtirozli mulohazamiz bor. Mustazodning barcha nashrlarida mazkur baytning ikkinchi misrasi quyidagicha bir xil tabdil etilgan:

*Bu ravzanalardin qiladur har biri yaʼni
husnunggʻa tamoshos.*

Bizningcha, misradagi “yaʼni” soʻzi gʻalat oʻqilgan. Bu soʻz “yaʼni” emas, balki “ayni” boʻlishi kerak. Chunki mazkur oʻrinda “yaʼni” soʻzining maʼnosi misra mazmuniga uygʻun emas. Bunday joʻn soʻz qoʻllash Navoyi uslubi va mahoratiga xos emas. Arabcha qoʻlyozmada “yaʼni” bilan “ayni” soʻzlarining yozilishi juda oʻxshash. Soʻzni kotiblar ham gʻalat yozgan boʻlishlari mumkin. Endi misraga “ayni” soʻzini qoʻllab, magʻzini chaqib koʻraylik. Oshiq koʻngilning majruh parchalari vujud darchalari orqali maʼshuq husnining “ayni”ni tomosha qiladi. Yaʼni, tasavvuf taʼlimoti boʻyicha, ushbu asardagi Yor obrazida Olloh qiyofasi mujassam. Ammo Olloh moddiy qiyofaga ega emas. Uning husn-u jamoli inson qiyofasida tasvir etiladi. Insonning husn-u jamoli Olloh goʻzalligining aynidir. Shoirning oʻz iborasi bilan aytganda: “ayni haqiqatdur – majoz”. Nima uchundir shunday talqin birorta noshirning xayoliga kelmagan.

Oshiq qayoqqa qaramasin, Yor jamoli jilvasini koʻradi, ammo bu baxt har kimga ham nasib etavermaydi:

*Har yon nazarim tushsa, Sen ollimda turursen,
koʻrmas vale agʻyor,
Ravshandurur ushbuki, emas qobili aʼmo
nazzorayi bayzo.*

Ushbu baytda yana bir bora tajalli nazariyasi, yaʼni Yor – Olloh husn-u jamolining butun borliqda, hamma joyda, har tarafda, har narsada, hamisha jilvalanib turishi, mavjudligi, barqarorligi oʻzining yorqin iqrorini topgan. Birinchi misradagi “agʻyor” obrazi Yor va Oshiqdan boshqa hammani, begonalarni, yotlarni anglatadi. Ollohning mavjudligi, barqarorligi gʻayb nazari, koʻngil koʻzi bilan idrok etiladi. Ammo bunday nazar “agʻyor”da yoʻq. Maʼshuq uning oldida turgan boʻladi. “Agʻyor” esa buni koʻrish layoqatiga ega emas. Unda gʻayb nazari yoʻq, koʻngil koʻzlari yumuq. Ikkinchi misradagi “aʼmo” soʻzi koʻr koʻzni bildiradi. “Bayzo” soʻzi esa oppoq nur, ravshanlik, Quyoshni anglatadi. Binobarin, ikkinchi misrada birinchi misra mazmuniga tabiiy asos keltiriladi. Yaʼni, “agʻyor”ning Yorni koʻra olmasligi shunga oʻxshaydiki, koʻr koʻz nainki boshqa narsalar, oppoq nurni ham va hattoki, Quyoshdek porloq mavjudotni ham koʻra olmaydi. “Ravshandurur” soʻzi ham shu mazmunga mutanosiblikni kuchaytirish maqsadida qoʻllangan.

Navoyining lirik qahramoni aksariyat asarlarda ilohiy ma'shuqning husn-u jamoli oldida hur-u parilar va jannat go'zalligini rad etadi. Masalan: *"Zohid, sanga hur, manga jonona kerak, Jannat sanga bo'lsin, manga mayxona kerak"* va hokazo. Navbatdagi baytda ham shunday mazmun ifodalangan:

*Ul nodiradinkim, laqabin hur demishlar,
husnung erur ahsan,
Ul manzaradinkim, otidur jannati a'lo,
ko'yung erur a'lo.*

Ushbu baytda Navoyining tasavvufiy maslagi yaqqol ifodalangan. Tasavvuf, aslida, diniy-falsafiy ta'limot bo'lsa ham, dunyoqarash sifatida u dindand farq qiladi. Shuningdek, diniy taqvodorlar, ya'ni zohidlar bilan so'filarning dunyoqarashlari ham o'zaro farqlanadi. Taqvodorlar jannat ilinjida toat-ibodat qilsalar, so'filar jannat-u hur-u parilar tamasida emas, balki Ollohning o'zi uchun kurashadilar. Zohidlar bilan oshiqlar o'rtasidagi qarama-qarshilik ham shu yerdan kelib chiqadi. Zohidlar, obidlar do'zaxdan qo'rqib, jannatga umid bog'lab Ollohga sig'insalar, so'fi oshiqlar jannat-u do'zax manfaatlarini chetga surib, faqat va faqat Ollohning o'zi uchun ibodat qiladilar, riyozat tortadilar. Shunga binoan, mumtoz adabiyotda zohid soxta taqvodor, tasavvuf namoyandalari bo'lsa, haqiqiy oshiq ramziga aylangan. Shuning uchun ham, baytdagi Navoyi lirik qahramoni oldida nodir, topilmas jannat hur-u parilaridan ko'ra, ilohiy ma'shuqning husni tahsinga loyiq. Jannati a'lo deya ta'rif-tavsif etiladigan afsonaviy manzil-makondan ko'ra, Yor – Ollohning o'z huzuri afzal.

Ma'lumki, tasavvufning dastlabki bosqichi, albatta, shariat. Tasavvuf, asosan, to'rt bosqich – shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqatdan iborat, deya tasnif etiladi ilmda. Navoyi shaxsiyati tadrijiy takomilida ham shunday. Avvalo, u shariat bosqichini bosib o'tgan. Lekin u bu bosqichda turib qolmagan. Agar u ham shu bosqichda to'xtab qolganida, zohidga aylanib qolar edi. Keyingi baytda mutasavvuf Navoyining ana shu tadrijiy takomili o'z ifodasini topgan:

*Zuhd ichida topmadi Navoyi chu maqome,
emdi qilur ohang
Kim, bo'lg'ay ulu bodavu bir turfa mug'anniy,
mug' kulbasi ma'vo.*

Ya'ni shoir aytmoqchiki: *"Navoyi shuncha yillar toat-ibodat bilan mashg'ul bo'ldi, shariat bosqichini boshidan kechirdi, lekin zohidlik maqomida qolib ketmadi va endilikda shunday maslakka erishdiki, endi Yor – ul bo'lg'ayu, may bo'lg'ayu, bir dasta cholg'uchilaru makon – mayxona bo'lgay"*. Navoyi – oshiq rind, darvesh darajasiga erishdi. Zohidlik bilan qanoatlanmay, uni tark etib, shariatga o'tdi.

"Oqqo'yunli muxlislar devoni"da mustazod shu taxallusli bayt bilan tugagan. U devon sulton sohibqiron Husayn Boyqaroning rahnamoligi va homiyligida hamda Alisher Navoyining o'z tashabbusi va bevosita nazorati ostida tuzilgan emas. Navoyining rasmiy devonlari "Badoye ul-bidoya" va "Navodir un-nihoya" hamda, ayniqsa, "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti bevosita Husayn Boyqaroning maslahati, tavsiyasi, talabi, ta'bir joiz bo'lsa, davlat buyurtmasi asosida, bevosita Navoyining o'zi tomonidan tuzilgan. Bu haqda shoirning o'zi "G'aroyib us-sig'ar" devoni debochasida batafsil ma'lumot bergan. Binobarin, Navoyi mustazodni takomillashtirar ekan, yakunlovchi baytda sulton Husayn Boyqaroning tarixiy, benazir xizmatini tavsiflab o'tishi tabiiy hol edi. Bu e'tirof va tahsin-tasanno notugal mustazodni quyidagicha haddi a'losiga yetkazgan:

*Har gavhari tufrog' uza bir qatra su yanglig'
tushkach adam o'lg'ay,
Gar qilmasa ishfoq etibon Xusravi G'oziy
nazmi sari parvo.*

Ushbu baytni Z.Isomiddinov S.Olimov “nazariya”siga ergashib, “begona bayt” deb ataydi [Исомиддинов 2022, 153]. Holbuki, bu Navoyi tomonidan tabiiy ravishda qo'shilgan bayt. Mustazodning shakllanish va tadrijiy takomil tarixini bilgan olim bunday yozmasdi.

Ma'lumki, Navoyining o'zi “G'aroyib us-sig'ar” debochasida ta'kidlaganiday, “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga kiritilayotgan har bir asar Husayn Boyqaroning nazaridan o'tgan. U ustoz shoir Husayniy sifatida she'rlarning ayrim baytlari, misralari, so'zlarini isloh etgan, asarlarga nuktadonlik bilan tahrir kiritgan, sayqal bergan. Navoyi sohibqironning ana shu adabiy rahnamoligiga ishora qilaroq, mustazodning yakunlovchi baytida aytadiki: *“Agar Xusravi G'oziy, ya'ni Husayn Boyqaro mehr-shafqat yuzasidan faqirning nazmini tahrir nazaridan o'tkazmaganida, uning gavhar kabi har bir so'zi tuproqqa tushgan bir tomchi suvdek singib ketar edi”*. Shunday qilib, yoshlik lirikasiga mansub besh baytli mustazod Navoyining ongli ravishdagi qayta ishlovi natijasida yetti baytli mukammal mustazod darajasiga etishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Ш.Сирожиддинов, Д.Юсупова, О.Давлатов. Навойишунослик. “Академнашр”, Т., 2020 йил.
- 2.З.Исомиддинов. Шавқи наво. Истиқлол даври ўзбек навойишунослиги. 30 жилдлик, 15-жилд. “Тамаддун” нашриёти, Т., 2022.
- 3.Алишер Навойи. Илк девон. Ҳамид Сулаймон нашри. “ФАН” нашриёти, Т., 1968. 137-а – 137-б варақлар.
4. Алишер Навойи. МАТ, 1-том, Бадое ул-бидоя, “ФАН”, Т., 1987 йил.
- 5.Алишер Навойи. ТАТ, 3-жилд, Бадое ул-васат, Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги Ғ.Ғулом ННМИУ, Т., 2011 йил, 657-бет.
- 6.Алишер Навойи. Оққўюнли мухлислар девони: табдил ва факсимил нашри. “Донишманд зиёси” нашриёти, Т., 2021. 62-б – 63-а варақлар.
- 7.Алишер Навойи. Тўла асарлар тўплами. 1-жилд. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб ус-сиғар. Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, Т., 2011.
- 8.Алишер Навойи. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб ус-сиғар. Илмий-танқидий текст асосида нашрга тайёрловчи Ҳамид Сулаймон. “ФАН”, Т., 1959 йил.
9. В.Раҳмон. “Илк девон”дан “Хазойин ул-маоний”гача. “Жаҳон адабиёти” журналы, 2024 йил, июл, 7-сон, 4-бет.

ALISHER NAVOIY “TANBEH”LARINING G’OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI
(“Mahbub ul-qulub” asari misolida)

Maqsud ASADOV,

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktor o‘rinbosari,
filologiya fanlari doktori, professor*

e-mail: alpbek2010@mail.ru

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/XMPE4290

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari tarkibidagi “Tanbeh”lar badiiyati, xususan, ularning obrazlar tizimi borasida bahs yuritilgan. Inson kamoloti, yetuklik shukhi, qolaversa, ulug‘ shoir ma’naviy olamiga xos go‘zal insoniy fazilatlarining adabiy matn mazmuni bilan bog‘liq jihatlariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: tanbeh, ishq, ma‘rifat, nafs, qalb.

**THE ILLUSTRATIVE-ARTISTIC CHARACTERISTICS OF ALISHER NAVAI'S
"REPRECISIONS" (On the example of the work "Mahbub ul-qulub")**

Abstract. This article examines the literary artistry of the Tanbeh sections within Alisher Navoi's renowned work, Mahbub ul-Qulub, with a particular focus on their system of imagery. Special attention is given to the thematic exploration of human perfection, spiritual maturity, and the noble qualities that define the poet's ethical and philosophical worldview. Through an in-depth literary analysis, the study elucidates how Navoi employs artistic expression to convey moral and intellectual ideals, emphasizing the intricate interplay between form and meaning in his portrayal of human virtues.

Keywords: tanbeh, ishk, enlightenment, temptation, soul.

Qalb, Ruh, Axloq, Ishq, Ma‘rifat, Haqiqat singari tafakkur kengliklarini yoritib, inson ma’naviy olamiga ishonch, qat‘iyat va zavq bag‘ishlovchi nekin tushunchalar Adabiyot atalmish so‘z saltanatining muqaddas mehvarida porloq nur taratib turadi. Shubhasiz, badiiyatning chinakam namunalari – so‘z san‘atining asl durdonalari kitobxonni yuksak kamolot cho‘qqilari sari boshlaydi. Ezgulik, xolislik, odillik, sofdillik kabi ulug‘vor fazilatlarini targ‘ibu tashviq etadi – ularning bitmas-tuganmas estetik quvvatidan ilhomlanadi. Yaxshini yomondan, to‘g‘rini egridan, Haqni botildan farqlay olishni o‘rgatish, chin insoniylik tamoyillariga sabot va qat‘iyat bilan amal qilib yashashga ruhlantirish adabiyotning bosh vazifasidir.

Ijod jarayoni esa o‘z-o‘zini taftish va inkishof etish imkoniyatidan yuzaga keladi. Qalb ko‘zgusida aks etgan haqiqatlar sirini anglash uchun ruhoniyyatning mukoshafa martabasi – fardoniyyatga yuzlanish ham ijodiy muvaffaqiyatlarga keng yo‘l ochadi. Chunki irfoniy adabiyotda “fardoniyyat – solikning vuslatga erishgandan keyin egallaydigan maqomi. Ma’naviy-ruhiy ushbu darajada qalb bashariy chirkinliklardan butkul poklanib, Haq bilan yakkama-yakka qolib tavhid mushohadasiga mashg‘ul bo‘ladi” [Хаққул И: 2014, 94]. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari ana shunday: mushohada holidagi SHAXSIYAT egasining hayotiy kuzatishlari, o‘tkir xulosalaridan yuzaga kelgan o‘ziga xos iqrornomasidir. “Mahbub ul-qulub” Haq oshig‘i – solik, ya‘ni yo‘lchining ko‘ngilga safari, ruhoniyyat olamiga sayru sayohatidir. U shaxs va nafs mujodallasiga bag‘ishlangan. Asarda boshdan oxir

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alişir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhridin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majoziylik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevvver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o’qitish bo’yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San’at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO’XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g’azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go’zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o’zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo’llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug’aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622